

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



**ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР**  
Илмий журнали

**ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
Научный журнал

**HISTORICAL RESEARCHES**  
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
*тарих фанлари доктори, профессор*  
*Ўзбекистон Миллий университети*

Бош муҳаррир ўринбосори:  
Заместитель главного редактора:  
Deputy Chief editor:

**Шакиров Иляс Рахимзянович**  
*т.ф.ф.д., (PhD)*  
*Ўзбекистон Миллий университети*

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ  
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ  
EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор, Академик  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Сулейманов Рустам Хамидович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Муминов Алишер Гаффарович**  
Сиёсий фанлари доктори, профессор  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Зуев Андрей Сергеевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
*Новосибирск Давлат университети*  
**Ишанхуджаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Габриэльян Софья Ивановна**  
тарих фанлари доктори, доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Убайдуллаева Барно Машрабжоновна**  
тарих фанлари доктори, доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Очилдиев Файзулла Бобокулович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Азизов Илдар Рафаэлевич**  
Сиёсий фанлари доктори (DSc)., доцент  
*Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби*

**Гаффоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
*Самарқанд давлат университети*  
**Сиддиков Равшан Бердимуратович**  
тарих фанлари номзоди, доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Тухтабеков Козимбек Азимбекович**  
тарих фанлари номзоди, доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Бабабеков Акбар Давурбаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Бахранов Шерзод Таштурсунович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
*Жамоат ҳафсизлиги университети*  
**Алиазарова Дилдора Валишеровна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент  
*Навоий Давлат педагогика институти*  
**Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Абдулаева Нигора Санжаровна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент  
*Америка технологиялар университети*  
**Тоғаев Жасур Эркинович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Усаров Умид Абдумавлянович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*  
**Эшқувватов Бобир Валикул ўғли**  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент  
*Ўзбекистон Миллий университети*

Контакт редакции журнала  
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,  
Исторический факультет  
Национального Университета  
Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
Web: <https://hstryres.uz/journal/>  
E-mail: [I.Shakirov91@mail.ru](mailto:I.Shakirov91@mail.ru)  
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal  
Tashkent city, street of Mirzo Golib,  
Faculty of history of the National  
university of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek  
Web: <https://hstryres.uz/journal/>  
E-mail: [I.Shakirov91@mail.ru](mailto:I.Shakirov91@mail.ru)  
Phone: +998900382203

# МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

|    |                                                                                                                                                                                           |     |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1  | <b>Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi</b><br>SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN<br>JANG – JOM JANGI                                                           | 5   |
| 2  | <b>Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li</b><br>MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI<br>TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI                                           | 10  |
| 3  | <b>Адилов Абдор Анварович</b><br>ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ<br>СИЁСАТИ ТАРИХИДАН                                                                              | 16  |
| 4  | <b>Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович</b><br>ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ                                                                                             | 27  |
| 5  | <b>Бахранов Шерзад Таштурсунович</b><br>ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ<br>ТУҒРИСИДА                                                                          | 36  |
| 6  | <b>Габриэльян Софья Ивановна</b><br>ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ<br>XX ВЕКА                                                                                 | 43  |
| 7  | <b>Дорошенко Татьяна Ивановна</b><br>ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ<br>В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ                                                 | 53  |
| 8  | <b>Ishanxodjayeva Zamira Raimovna</b><br>IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING<br>IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT<br>VILOYATI MISOLIDA) | 62  |
| 9  | <b>Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna</b><br>SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR:<br>O‘ZBEKISTON TAJRIBASI                                                                 | 71  |
| 10 | <b>Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi</b><br>SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT<br>HUKUMRONLIGI                                                                         | 77  |
| 11 | <b>Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi</b><br>O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND<br>SIFATIDA SHAKLLANISHI                                                      | 85  |
| 12 | <b>Мусаев Нуриддин Умирзакович</b><br>РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА<br>ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ                                                         | 91  |
| 13 | <b>Musayev Azizbek Baxridinovich</b><br>MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI<br>AKS ETISHI                                                                     | 103 |
| 14 | <b>Nazarov Xumoyun Alisherovich</b><br>MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY<br>OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI                                                 | 110 |
| 15 | <b>Нарбеков Абдикамил Вафаевич</b><br>ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ                                                                                                          | 120 |
| 16 | <b>Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich</b><br>SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN<br>TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA                                                    | 126 |

|    |                                                                                                                                                                                                                |     |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 17 | <b>Очилдиев Файзулла Бабакулович</b><br>XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА<br>БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН                                                                               | 144 |
| 18 | <b>Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich</b><br>XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI<br>XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR                                                                  | 152 |
| 19 | <b>Солиев Махмуджон Махамаджонович</b><br>ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ<br>ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ<br>ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)         | 159 |
| 20 | <b>Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich</b><br>XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI<br>O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)                                             | 167 |
| 21 | <b>Usarov Umid Abdimavlyanovich</b><br>ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA<br>TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV<br>MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI | 174 |
| 22 | <b>Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li</b><br>XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI<br>O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI                                                  | 184 |
| 23 | <b>Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich</b><br>AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUHORO – XIVA MUNOSABATLARI                                                                                                    | 191 |
| 24 | <b>Холикулова Шахноза Боймухамматовна</b><br>ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ                                                                                                                   | 200 |
| 25 | <b>Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи</b><br>ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ<br>УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ                                                                             | 207 |
| 26 | <b>Yunusova Xurshida Erkinovna</b><br>MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA<br>UNING MUAMMOLARI                                                                                           | 214 |

**Xolikulov A.B.**

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası mudiri, professor, t.f.d.

O‘zbekiston Milliy universiteti

[a.kholikulov@nuu.uz](mailto:a.kholikulov@nuu.uz)**AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA  
MUNOSABATLARI****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Buxoro amirligining Xiva xonligi bilan elchilik aloqalari, ular o‘rtasidagi ziddiyatlar, ikki o‘rtadagi munosabatlarda afg‘on shahzodasi Mahmud bilan bog‘liq holda sovuqchilikning kelib chiqishi, Amir Haydar hukmronligi yillarida uning o‘g‘lini to‘yi munosabati bilan o‘zaro diplomatik aloqalarning tiklanishi, hatto buxoroliklarni Xivaga qurol yetkazib berganliklari kabi masalalar mahalliy manbalar, va tarixchilar asarlari orqali yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, elchilik munosabatlari, Amir Shohmurod, Amir Haydar, Muhammad Amin inoq, Mahmud Mirzo, Erdonabiy, Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon I.

**KIRISH**

Xiva xonligi tashkil topgan dastlabki vaqtlardan oq Buxoro bilan munosabatlari o‘ziga xos tarzda kechgan. Albatta, bu to‘g‘risida ko‘plab tarixiy manbalar saqlanib qolgan. Qo‘ng‘irot sulolasidan chiqqan inoqlar va xonlar o‘zlarining oldingi ajdodlaridan farqli ravishda tarixga alohida ahamiyat bera boshlashgan. “Ular qo‘lga kiritgan mavqe va maqomlarini legitimlash (qonuniylashtirish) vositalarini qidirib, uning eng qulayi tarixnavislik ekanini tushunib yetadilar”[1]. Buning natijasida Xiva xonligida bir qator tarixiy asarlar yozilgan. Buxoro amirligining Xiva xonligi bilan siyosiy aloqalarini o‘rganishda Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiyning “Riyo ud-davla”, “Zubdat at-tavorix”, “Jome’ ul-voqeati sultoni”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol”, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” asarlari muhim manba sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu asarlar jahon tarixshunosligida “Xiva solnomalari” nomi bilan mashhur bo‘lib, ularda nafaqat mintaqada yuz bergan siyosiy voqealar, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bog‘liq masalalar, balki Xiva xonligining tashqi siyosiy aloqalari, xususan, Buxoro amirligi bilan olib borgan aloqalari to‘g‘risida ham qimmatli ma‘lumotlar beriladi.

Ushbu solnomalarda Xiva xonligining xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalari juda qisqa bayon etilib, voqealar tafsilotiga keng o‘rin ajratilmagan. Masalan, ko‘p hollarda xorijiy mamlakatlardan kelgan elchilarning nomi, ularning qaysidir Xiva xoni tomonidan qabul qilinganligi, ba‘zan esa xonning ularga bildirgan munosabatigina qayd etilgan, xolos. Ammo e‘tiborli jihati, xonlarning yuritgan tashqi siyosati bobidagi bironta ham muhim voqea yoki tafsilotlar solnomalar mualliflari nazaridan chetda qolmagan. Bu hol juda katta ahamiyatga molik bo‘lib, solnomalarning qiymatini dastlabki ishonchli manba darajasiga ko‘targan. Agar

shu davrga oid arxiv hujjatlarining ko'pchilik qismi bizgacha yetib kelmaganligini hisobga olsak, xonlikning tashqi siyosiy munosabatlari borasidagi ushbu ma'lumotlarning naqadar katta ahamiyatga molikligini anglab yetamiz [2]. Ta'kidlash lozimki, ushbu manbalar bugungi kunda xorijda ham katta qiziqish uyg'otib, qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

### ***TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI***

1763-yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'iroq urug'i inoqlari hokimiyatni boshqargan bo'lsalar-da, 1804-yilga qadar amalda boshqa shaxsni rasman xon qilib ko'tarib, davlat ishlarini uning nomidan yuritadilar. Qo'ng'iroqlar sulolasi vakillaridan Muhammad Amin inoq (1763–1790) 1763-yili Xivada hokimiyatni qo'lga oladi [3]. “Firdavs ul-iqbol”da Doniyolbiy (1758–1785) otaliqning Muhammad Amin inoqni qadri va martabasiga yarasha emas, balki “tahqir va taqsirig'a kushish qildi. ... Avval imdod va'dasi qilib, so'ngra ul va'da vafosig'a qiyom” ko'rsatmaganligi qayd etiladi [4].

Tez orada “Xorazm Muhammad Amin inoqning tahti farmonig'a kirib, fuqaro forig'bolida osudahol bo'ldilar. ... Va ikki oydin so'ng Jahongirxonni xala' qilib, Oqimxon ibn Odil sultonni Dashtdin kelturub, podshoh qildi” [5]. Lekin Muhammad Amin inoq hokimiyat legitimligini ta'minlash maqsadida rasmiy xonlarni Buxoro yoki Dashti Qipchoqdan keltirib taxtga o'tkazishga majbur edi. Nomzodlarning Buxorodan keltirilishida muxolif kuchlarning ta'siri katta bo'lgan.

Buxoro – Xiva munosabatlaridagi keyingi masala afg'on shahzodasi Mahmud bilan bog'liq holda kelib chiqadi. Amir Shohmurod yaqindagina Buxorodan haj bahonasida chiqib ketib, Xivaga borgan afg'on shahzodasi Mahmud Mirzoni qaytarishni iltimos qilib Mullo Boltani Avaz inoq (1790-1804)ning oldiga elchi qilib jo'natadi. Avaz inoq Buxoro amirining iltimosi rad qilib, Mahmud Mirzoni yovmut Ushoqnazar otaliq hamrohligida Eronga ketishiga ko'maklashadi [6].

Buxoroda Amir Haydar hukmronligining ikkinchi yili amirning ichki siyosatidan norozi bo'lgan bir guruh amaldorlarning tashabbuslari bilan Xiva xoni katta qo'shin bilan Buxoroga hujum qilgan. Buxoro atrofidagi aholining mulklarini talon-taroj qilib, chorvasini haydab, o'zlarini esa asir qilib olib ketadi. Amir Haydar xorazmliklarni ta'qib qilib, asirlarning bir qismini ozod qilishga muvaffaq bo'ladi va ortga qaytadi [7].

“Firdav ul-iqbol”da Amir Haydar va Eltuzarxon (1804-1806yy) o'rtasiga nizo tushishining to'rtta sababi keltirib o'tiladi. Shu bilan bir qatorda, “Firdavs ul-iqbol”da qayd etilishcha, “1805-1806 yillar davomida xivaliklarning kichik-kichik guruhlarini buxoroliklarning karvoniga sakkiz marta hujum qilib, ularni talaganlar. O'z navbatida Amir Haydar ham 1806 yilning mart oyida Rajabbiy inoq va Kayuvxo'ja boshchiligidagi yettita sarkardani Xorazmga yuboradi. Shuningdek, Otaniyoz bek va Yaxshimurod bek boshchiligidagi muxolif kuchlardan ham foydalanadi” [8].

Muhammadhakimxon Eltuzarxonning Buxoroni fath etish maqsadida Omuya daryosidan kechib o'tganini, ikki o'rtada jangda buxoroliklar g'alaba qozonganini qayd etadi [9]. Shu tariqa Eltuzarxon vafot etib, Urganch aholisi taslim bo'ladi. Xuddi shu payt Qo'qon qo'shini O'ratepani egallab, buxorolik amirzodalardan

to'rt ming kishini asir oladi. Buni eshitgan Amir Haydar noiloj choparlarni farmon bilan amirlari oldiga jo'natib, qo'shinni qaytarishga majbur bo'lgan [10].

Yuqoridagi faktlar, sabablariga yanada aniqlik kiritilgan holda "Tarixi Turkiston" asarida ham o'z tasdig'ini topgan. Unda 1806-yili Xorazm xoni Eltuzarxon Buxoro atrofini talon-taroj qilib, ellik ming qo'y va bir necha ming tuya olib ketganligi, yana bir necha marta Buxoro atrofini talon-taroj qilganligi sababli Amir Haydar Xorazm ustiga o'ttiz ming kishilik qo'shin yuborishga majbur bo'lganligi yozilgan [11].

Darhaqiqat, yuqorida nomlari tilga olingan asarlarda ham Amir Haydar Qutlug' Murodbiyni inoq – Xorazm voliyasi qilib yuborganligi, ammo xorazmliklar bunga rozi bo'lmasdan Muhammad Rahimxonni xon qilib ko'targanliklari ta'kidlanadi. Demak, bu paytda amir Xiva xonligi ichki ishlariga faol aralashganligi hamda uni o'z ta'sir doirasida ushlab turishga harakat qilganligini ko'rish mumkin.

"Firdavs ul-iqbol"da esa Muhammad Rahimxon I taxtga o'tirgach, asirlikdagi Qutlug' Murod inoq boshliq barcha asirlarni yurtga qaytarish ustida bosh qotirgani va boshqa masalalar qayd etilgan [12].

Muhammad Rahimxon I hukmronligi yillarida ham avvalgi Buxoro homiyligidagi ayirmachi kuchlar o'z faoliyatini to'xtatmadilar. Masalan, Xo'jamurodbiy ukasi To'ramurod so'fi bilan Avaz inoq davridan boshlab o'n bir yil davomida vaqti-vaqti bilan isyon ko'tarib turgan bo'lsa, Muhammad Rahimxon I hukmronligi yillari ham tinchishmadi.

Bundan tashqari, Yangidaryo qoraqalpohlari oqsoqollaridan mang'it urug'i boshlig'i O'runboybiy, to'nko-xitoy boshlig'i Eshjonbiy, beshsariq-xitoy sardori Hasanbiy, Baroq bahodirning ukasi Esankeldibiy, qipchoq urug'ining hokimi To'xtapo'lodbiy va kenagas jamoasidan uymovut elining ulug'i Mamonbiylar Yangidaryoda muxolifat tuzib, Muhammad Rahimxon I ga bo'ysunmay qo'yadilar [13]. Yoki 1814-yili Hazorasp qal'asi hokimi Abdulloh inoq Odinamurod noidning ta'sirida xonga xiyonat qilib, o'zining devonbegisi Xo'jamberdini Amir Haydarga "izhori itoat va inqiyod qilib" yuboradi. Amir Haydar esa o'z navbatida unga Xiva xonligini "g'oyibona in'om qilib, yorlig' yuboradi" [14]. Xullas, Muhammad Rahimxon I o'z hukmronligining dastlabki o'n yilligida ushbu isyonchi kuchlar bilan kurash olib borish va ularni bostirish bilan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ladi.

Yana bir qiziq jihat shundaki, Amir Haydar hukmronligi yillarida Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasida ma'lum vaqt davom etgan sovuq aloqalarga chek qo'yilib, o'zaro diplomatik bordi-keldi tiklanadi. Bunga Amir Haydar o'g'lining to'yi munosabati bilan Buxorodan Muhammad Rahimxon I saroyiga O'roq boy miroxur va Avazmuhammad yasovulboshilarni elchi qilib yuborishi sabab bo'lgan edi [15].

Xorazmga elchilar kelgan vaqtda Muhammad Rahimxon Orol bo'ylariga yurish qilgan bo'lib, o'zi ham shu yerda edi. Qutlug' Murod inoq Yor Muhammadbek orqali Buxoro amirining nomasini Muhammad Rahimxonga yuboradi [16]. Elchilar hurmat bilan kutib olinib, ularga qimmatbaho sovg'alar berilgan.

Ushbu kelgan elchilarga qo'shib, Amir Haydar Xivaga Yaqub qo'rchibegi mang'it va Kal yasovullarni jo'natadi. Amir o'z elchilari orqali "hazrat a'lo

xoqonni [Muhammad Rahimxonni] og'a va o'zini ini" sanab, qimmatbaho sovg'alar jo'natadi. Ikki o'rtadagi munosabatlar shu darajada iliqlashadi-ki, hatto Muhammad Rahimxon "avval qazoq ta'dibi va so'ngra taka go'shmoli" maslasida maslahatlashish uchun buxorolik elchilarga qo'shib, Berdi inoqni jo'natadi. Amir Haydar Xiva xoni iltimosiga ko'ra "amomai iftixorin mabohat havosig'a otib, taka go'shmolining muniyatin o'z zimmasig'a" olib, turkmanlar qo'liga tushgan Xiva savdogarlarining mollari va asirlarni "istirdod qilib, dargohi olampanohg'a irsol" qilishga kafil bo'lishini o'z elchilari Sayid Musoxo'ja O'roq Mir Kuloliy va Boymuhammad Chuhra og'asi orqali jo'natilgan "izhori ittihad va yakjixatlikin sadoqatnoma"si bilan ma'lum qiladi va Berdi inoqqa qo'shib Xivaga jo'natadi [17]. Natijada Muhammad Rahimxonning Marv turkmanlari masalasidan ko'ngli tinchib, Buxoro amirining va'dasiga ishonadi va Dashti Qipchoqqa yurish qilib, u yerdan katta g'alaba bilan qaytadi.

"Firdavs ul-iqbol"da keltirilgan ma'lumotlar, shubhasiz, Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Lekin ushbu asarda ko'p hollarda Buxorodan kelgan elchilar va Buxoroga jo'natilgan elchilarning nomlari keltirilgan holda ularning nima maqsadda kelganligi va nima haqida suhbat qurilganligiga doir ma'lumot berilmaydi. Masalan, "rabi al-avvalning avoilida [18] Buxorodin Hasanmurod otoliq Boymuhammad jorchiboshi birla elchilikka keldi. Mohi mazkurning avoxirida [19] Berdi inoqni elchi mazkurg'a qo'shub, Buxorog'a yubordi. ... Mazkur oyning yigirma yettisida [20] yakshanba kuni Berdi inoq Podshohxo'ja sadr bila Buxorodin keldi. ... Buxoro elchisi Podshohxo'jag'a yana Berdi inoqni qo'shub yubordi" [21]. Ikki o'rtadagi tez-tez elchilar almashinuvi o'zaro munosabatlarning ancha iliqlashganligidan dalolat beradi.

Buxoro – Xiva munosabatlarida hatto buxoroliklarni Xivaga qurol yetkazib berganliklarini ham ko'rish mumkin. Masalan, "Rajab oyining yigirma uchida [22] yakshanba kuni" Berdi inoq va Buxoro elchisi Alimuhammad chig'atoybegi Amir Haydarning Xivaga yuborgan to'p va shamxollarini olib keladi "Va sha'bon oyining to'rtida [23] juma kuni Buxoro elchisig'a ruxsat" beriladi [24].

Buxorodan yuborilgan keyingi elchilikka Orifxo'ja boshchilik qilib, "izhori do'stlig'" qilib keladi. Ushbu elchilik Muhammad Rahimxon I tomonidan "rabi al-avval oyining avoilida [25]" qabul qilinib, elchiga shohona sarpolar kiydiriladi va unga Berdi inoqni qo'shib Buxoroga jo'natadi. Berdi inoq Buxoroga borgach, unga yana Buxoro elchisi qo'shib Xivaga yuboriladi. Ushbu elchilik Xiva xoni tomonidan 1815-yilning 4-aprelida qabul qilinib, shu yilning 21-mayida Buxoroga ruxsat beriladi [26]. 1816-yilning 3-iyulida Qandim sardor Xivadan Buxoroga elchi bo'lib kelgan bo'lsa, shu yilning 4-avgustida Buxorodan "Nurmuhammadbek to'qsovluboshi to'q manqit Amir Haydarning ixlosnomasini" eltadi [27].

Shu tariqa ikki davlat o'rtasidagi elchilik almashunuvlari, do'stona munosabatlar 1821-yilgacha davom etadi. Bir necha yildan beri Amir Haydar orqali turkmanlar hujumini jilovlab turgan Muhammad Rahimxon I bu safar ham Berdi Inoqni "mashvarat" qilish uchun Buxoroga jo'natadi. Amir Haydar elchini yaxshi kutib olib, unga turkmanlar talon-taroj qilib olib ketgan mollarni

qaytarishga “mutakaffil” bo‘lishini aytib, “Berdi Inoqni ta’zimi vofir va takrimi mutokosir bila qaytordi” [28].

Biroz vaqt o‘tib, Amir Haydar bergan va’dasining ustidan chiqmagach, Xiva xoni Buxoroga ikkinchi elchilikni yuboradi. Lekin ushbu elchilik ham natija bermagan.

Shu voqeadan so‘ng ikki o‘rtadagi munosabatlarga sovuqlik tushadi va Xiva xoni bir necha bor Marv turkmanlariga qarshi, Buxoroga qarshi bir necha bor yurishlar uyushtiradi. Xususan, 1821-yil xorazmliklar Marvga yurish qilganlarida Amir Haydarning buyrug‘i bilan Chorjo‘y hokimi Atoxonbek va Karimqulibeklar bir ming besh yuz kishilik qo‘shin bilan Xiva qo‘shiniga qarshi chiqadi va ularga talafot yetkazadi. Shunda xorazmliklar Atoxonbekka elchi yuborib, bu yurishdan avval Muhammad Rahimxon I Amir Haydar huzuriga elchi yuborganini, turkmanlar amirning aytganini qilmaganligini, shu maqsadda turkmanlardan intiqom olish uchun yurish qilinayotganligini tushuntirishga harchand urinishmasin, samara bermaydi va ikki o‘rtada to‘qnashuv sodir bo‘lib, “ko‘p kishini qatlg‘a yetkardilar”[29]. Bu holat ham o‘zaro do‘stlik munosabatlariga putur yetishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchi tarafdin, Qo‘qon xoni Umarxon (1810–1822 yy) taxtga chiqishi bilan alohida kuchga ega bo‘lgan davlat tuzish uchun Xiva xonligi bilan yaqinlashish siyosatini olib borib, bir necha marta elchilar jo‘natadi [30]. Xususan, “Shohnomai nusratpoyon” asaridagi ma’lumotlar tahliliga tayangan tadqiqotchi F.Otaxonov 1821-yili Qo‘qon xonligidan Xivaga elchi kelib, Umarxonning maktubini yetkazganligi, bunga javoban Muhammad Rahimxon I “Agar men tomonga marhamat nazarlari bilan ishora qilib, sarkashligi bila ma’lum bo‘lgan Buxoro podshohining ahvolini xarob qilishga amr qilsalar, agar Parvardigor o‘z lutfi karami bilan madadkor bo‘lsa, aminmanki, ularni tag-tubi bilan yulib tashlardim. Assalom attaqsir”, deb aytganligini qayd etadi [31]. Ushbu maktubning mazmun-mohiyatidan ikkala xonlik o‘rtasida Buxoro amirligiga qarshi harbiy-siyosiy ittifoq tuzilganligi anglashiladi.

Ushbu o‘ta muhim masalaga boshqa tadqiqotchilar ham e’tibor qaratishgan. Xossatan, marhum N.Polvonov ta’biriga ko‘ra, Umarxon Xiva xonining taklifini qabul qiladi va Xorazm elchilariga Abduxoliq qorovulbegini hamroh qilib sovg‘a-salomlar bilan Xivaga jo‘natadi. Bu esa, o‘z navbatida, Xiva va Qo‘qon xonlarining Buxoro amirligiga qarshi ittifoq tuzganligidan dalolat beradi [32]. Bu elchilik to‘g‘risida Buxoro yoki Xiva xonligiga oid boshqa manbalarda ma’lumotlar uchramasada, Xiva va Qo‘qon xonlarining bir vaqtning o‘zida Buxoroga qarshi harbiy harakatlar boshlab yuborishlari yuqoridagi ittifoqning amaliy natijasidan dalolat beradi [33].

“Firdavs ul-iqbol”da keltirilishicha, Buxoro va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlar buzilgach, har oyda uch yoki to‘rt martalab xivaliklar Buxoroga talon-taroj yurishlarini amalga oshirganlar. Shu bilan birga Rossiyadan Buxoroga kelayotgan savdo karvonlariga ham hujum uyushtiradilar. Bularning barchasi oddiy xalqning tinkasini quritib, mamlakat mulkini “xarob va vayron” qiladi. Amir Haydar ushbu talonchiliklarni oldini olish maqsadida 1825-yilning mart oyida Muhammad Rahimxon I ga ikki o‘rtadagi “abad muddatning muxosimat va

muxolifatin tarkin tutib, muvofiqat va do'stlig' izhor qilib, ajzu inkisor yuzidin ma'ziratnoma" [34] yuborgan. Ushbu maktubdan ko'rinib turibdiki, Amir Haydar ikki o'rtadagi dushmanlik kayfiyatidan har ikki tomon ham foyda qilmasligini tushunib yetib, do'stlik rishtalarini bog'lashni maqsad qilgan. Nafaqat maqsad qilgan, hatto Xiva xoni tobeligiga o'tib, taxtdan voz kechishga ham tayyor ekanligini izhor etgan. Bu, albatta, sharqona diplomatiyaning nozik bir qirradi ekanligini ikkala taraf ham chuqur his qilgan. Agar Muhammad Rahimxon I Buxoroni tasarruf etish maqsadida yurish qiladigan bo'lsa, Amir Haydar yuqorida o'zi yozganidek shaharni sira tark etmas, o'rtada qonli urush bo'lishi muqarrarlighi hamda qaysi tarafning qo'li baland kelishi oldindan ma'lum emasligini har ikkala taraf ham juda yaxshi tushunardi. Bunday tobelik ruhidagi ma'ziratnomadan maqsad Muhammad Rahimxon I ning ambitsiyasini qanoatlantirish va shu orqali talon-tarojga chek qo'yish, raiyatning omonligiga erishishdan iborat edi.

Amir Haydarning maktubi Xivaga yetib kelgan vaqtda Muhammad Rahimxon I betob bo'lib, 1825-yilning 8-mayida vafot etadi [35]. Bayoniy o'zining "Xorazm tarixi" asarida "1240 (1825)-yili ramazon oyining 19-si shanba kuni Muhammad Rahimxon vafot qildi. Xonning o'limini xalqqa bildirishdan oldin, uning o'g'li Olloquli xon qilib ko'tarildi", - deb yozadi [36]. Demak, mamlakatda yuz berishi mumkin bo'lgan ayrim fitna va noroziliklarni oldini olish uchun xonning o'limini xalqqa bildirishdan oldin yangi xon taxtga chiqarilgan. Aslida bu yagona hodisa bo'lmasdan, Sharq mamlakatlariga xos an'ana bo'lgan, demokratik davlat boshqaruvi shunchaki ko'z-ko'z uchun amal qilayotgan, aslida yakkaboshqaruvga asoslangan davlatlarda bu an'ana hozirga qadar amal qilib keladi. O'rta asrlar davri va yangi davrning dastlabki asrlarida Yevropa ham shu yo'ldan borgan, "Qirol o'ldi, yashasin qirol!" degan aqida tasodifan yuzaga kelmagan.

"Riyoziy ud-davla"da yozilishicha, Olloqulixon (1825-1842) taxtga o'tirgach, Amir Haydarning "musolaha talabi bila yuborgan sulhnoma"sini olib kelgan Buxoro elchilari Sultonxo'ja va Musobeklarni qabul qiladi. Ushbu elchilar Muhammad Rahimxon I ning vafoti vaqti kelgan edilar. Olloqulixon elchilarni iltifot bilan qabul qilib, "avotiri shohona va xilo'i baxshishi bila sarafroz qilib, ruxsat berdi" [37].

Muhammad Rizo Ogahiyning "Riyoziy ud-davla" asarida Xivaning Olloqulixon hukmronlik qilgan davri yoritilishi bilan bir qatorda qo'shni xonliklar, xususan, Buxoro amirligi haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Jumladan, Amir Nasrullo taxtga chiqqach, mavjud an'anaga ko'ra atrofdagi davlatlarga "duo va salomlar" yo'llab elchilar jo'natadi. Manbada qayd etilishicha, bunga javoban Xivaga kelgan elchiga qo'shib, Olloqulixon a'lam ul-ulamo Eshonxo'ja mufti va Qorako'z mahramlarni "ul viloyat hokimi Bahodirxong'a inoyatnoma bila irsol qildi". Ushbu elchilar Buxorodan qaytishda "mazkur bo'lg'on xonning duo va salomin yetkurdilar" [38].

## **XULOSA**

Tadqiq etilayotgan davrda amirlikning Xiva xonligi bilan bo'lgan munosabatlari ham ziddiyatli kechgan. Amir Haydar hukmronligi yillarida Buxoro

va Xiva xonliklari o'rtasida ma'lum vaqt davom etgan sovuq aloqalarga chek qo'yilib, o'zaro diplomatik munosabatlar tiklandi. Bunga Amir Haydar o'g'lining to'yi munosabati bilan Buxorodan Muhammad Rahimxon I saroyiga O'roq boy miroxur va Avazmuhammad yasovulboshilarni elchi qilib yuborishi sabab bo'lgan edi.

“Firdavs ul-iqbol”da keltirilishicha, Buxoro va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar buzilgach, har oyda uch yoki to'rt martalab xivaliklar Buxoroga talon-taroj yurishlarini amalga oshirgan. Shu bilan birga Rossiyadan Buxoroga kelayotgan savdo karvonlariga ham hujum uyushtirdilar. Bularning barchasi oddiy xalqning tinkasini quritib, mamalakat mulkini “xarob va vayron” qildi.

### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол (Бахту саодат жаннати) / Араб ёзувидан табдил этган, кириш ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, И.Бекчанов, Н.Полвонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 5.
2. Хоразм тарихнавислигида Хива хонлиги ташқи сиёсати // Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерklar ва лавҳалар / Академик М. Хайруллаев умумий таҳрири остида. – Тошкент, 2003. – Б. 135.
3. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. II китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 158.
4. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол ... – Б. 135-136.
5. Шермуҳаммад Авазбий Мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-икбол ... – Б. 223.
6. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол ... – Б. 171-172.
7. Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангития (История мангитских государей). – М.: Изд-во Восточной литературы, 1962. – С. 53.
8. Шермуҳаммад Авазбий Мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-икбол ... – Б. 356-359.
9. Муҳаммадҳакимхон тўра Мунтахаб ат-таворих ... – В.52-53.
10. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 54.
11. Мизо Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 174.
12. Шермуҳаммад Авазбий Мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-икбол ... – Б. 398-399.
13. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол ... – Б. 222-223.
14. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. ... – Б. 408.
15. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерklar ва лавҳалар / Академик М. Хайруллаев умумий таҳрири остида. – Тошкент, 2003. – Б. 333.
16. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик: (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2020. – Б. 130.
17. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол ... – Б. 268.
18. 1229-yil 3–5-rabi al-avval / 1814-yili 21-fevralida bu oy kirgan.

19. 1229-yil 25-rabi al-avval / 1814-yil 18-mart.
20. 1229-yil 27-rabi al-oxir / 1814-yil 20-mart.
21. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 410.
22. 1229-yil 23-rajab/ 1814-yil 11-iyul.
23. 1229-yil 4-sha'bon / 1814-yil 22-iyul.
24. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 288.
25. 1230-yil 5-rabi al-avval / 1815-yil 15-fevral.
26. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 289, 291.
27. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 421.
28. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 449.
29. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 322.
30. Қўқон ва Хива хонликларининг ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир // Ўзбекистонда элчилик хизмати тарихидан: талқин ва таҳлил. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2016. – Б. 178.
31. Отахонов Ф. Қўқон ва Хива хонликлари ўртасида 1821 йилда тузилган ҳарбий иттифоқ ва унинг оқибатлари («Шоҳномаи нусратпаён» маълумотлари таҳлили) // O'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2012. – №.2. – Б. 26.
32. Ўша жойда.
33. Полвонов Н. Қўқон ва Хива хонликларининг ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир (XIX аср) // Ўзбекистонда элчилик хизмати тарихидан: талқин ва таҳлил. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2016. – Б. 180-181.
34. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 354.
35. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 488.
36. Баёний Муҳаммад Юсуф. Хоразм тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 251-252. Бу ҳақда қаранг: Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. 1825–1842 йиллар («Риёз уд-давла» қўлёзма асари асосида): Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, 2003. – Б 17.
37. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Риёзуд-давла // Асарлар. V жилд. Тарихий асарлардан парчалар / Нашрга тайёрловчи С.Долимов. Масъул муҳаррир Ғ.Каримов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 19-20.
38. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Ўша асар. – Б. 65.

**Холикулов А.Б.**

Заведующий кафедрой «Истории Узбекистана» профессор, д.и.н.  
Национальный университет Узбекистана  
[a.kholikulov@nuu.uz](mailto:a.kholikulov@nuu.uz)

## **БУХАРСКО-ХИВИНСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ЭМИРА ХАЙДАРА**

### ***АННОТАЦИЯ***

В данной статье на основе местных источников и трудов историков освещаются вопросы посольских отношений между Бухарским эмиратом и Хивинским ханством, существовавшие между ними противоречия, возникновение охлаждения во взаимоотношениях сторон в связи с афганским принцем Махмудом, восстановление дипломатических связей в период правления эмира Хайдара по случаю свадьбы его сына, а также факты поставок оружия бухарцами в Хиву.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, Хивинское ханство, посольские отношения, Эмир Шахмурад, Эмир Хайдар, Мухаммад Амин инак, Мухаммад Мирзо, Эрдонабий, Элтузархан, Мухаммад Рахимхан I.

***Kholikulov A.B.***

The head of department of «History of Uzbekistan» professor, DSc  
National university of Uzbekistan  
[a.kholikulov@nuu.uz](mailto:a.kholikulov@nuu.uz)

## **DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND THE KHIVA KHANATE DURING THE REIGN OF EMIR HAYDAR**

### ***ABSTRACT***

This article, based on local sources and the works of historians, examines the diplomatic relations between the Bukhara Emirate and the Khiva Khanate, the contradictions that existed between them, the deterioration of bilateral relations associated with the Afghan prince Mahmud, the restoration of diplomatic ties during the reign of Emir Haydar on the occasion of his son's wedding, as well as the supply of weapons to Khiva by the Bukharans.

**Key words:** Bukhara Emirate, Khiva Khanate, diplomatic relations, Emir Shahmurad, Emir Haydar, Muhammad Amin Inaq, Muhammad Mirza, Erdonabiy, Eltuzar Khan, Muhammad Rahim Khan I.